

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

NORMATOV AZAMATBEK ABDUXALILOVICH

**ZAMONAVIY FRANSUZ TILIDA INTENSIVLIK KATEGORIYASINI
IFODALOVCHI SIFATLARNING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Normatov Azamatbek Abduxalilovich

Zamonaviy fransuz tilida intensivlik kategoriyasini ifodalovchi sifatlarning
lingvostilistik xususiyatlari 3

Норматов Азаматбек Абдухалилович

Лингвостилистические особенности прилагательных, выражающих
категорию интенсивности в современном французском языке 25

Normatov Azamatbek Abdukhalilovich

Linguostylstical features of adjectives, representing the category of intensiveness in
Modern French 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

NORMATOV AZAMATBEK ABDUXALILOVICH

**ZAMONAVIY FRANSUZ TILIDA INTENSIVLIK KATEGORIYASINI
IFODALOVCHI SIFATLARNING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3098 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Andijon davlat chet tillari institutining veb-sahifasi (www.adchti.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yakubov Jamoliddin Abduvaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shaxobiddinova Shohida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Axrorova Ro‘zixon Usmonovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning “_____” _____ 2025-yil soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shoh ko‘chasi 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76; faks: 0(374) 223 42 76 e-mail: asifl_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shoh ko‘chasi 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.Dj.Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

G‘.M.Xoshimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tilshunosligida fransuz tilidagi sifatlarning intensivlik kategoriyasining tadqiqi, ushbu kategoriyani qiyosiy darajalar kategoriyasiga nisbatan mustaqil va o'z ifoda tizimiga ega kategoriya sifatida ko'rib chiqish hamda sifat darajalarining grammatik tabiati va sifat intensivligini ifodalashning leksik-sintaktik vositalarini o'rganish, shuningdek, fransuz tilida kuchaytirish vositalarining sarmahsul struktural-semantik modellarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Fransuz tilidagi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan sifatlar intensivlik kategoriyasining lingvostilistik xususiyatlarining o'rganilishi, mazkur kategoriyaning tizimli ravishda yoritilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida intensivlik kategoriyasi narsa va harakat sifat ko'rsatkichlari ko'lami, hajmi, xususiyatlarining me'yoriy ko'rsatkichga nisbatan ortishi yoki kamayishini, o'sishi yoki pasayishini, kuchayishi yoki kuchsizlanishini mantiqiy va hissiy tarzda belgilovchi til hodisasi hisoblanadi. Muayyan ma'noda ushbu kategoriya universal xususiyat kasb etadi, chunki u barcha tillarda kuzatiladi va u mazkur til hodisasini fransuz tilida grammatik, leksik, stilistik reja asosida o'rganish muhimdir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda ilm-fanni rivojlantirish, barcha sohalarga ilm va innovatsiyalarni tatbiq etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyati rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun aniq va ildam qadamlar tashlayotgan Yangi O'zbekiston oldida turgan ulkan vazifalarni hal etishda esa, ilm-fanning o'rni beqiyos. "Mamlakatimiz taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalar"¹ ekanligi tilda tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, so'nggi yillarda chet tillarni lisoniy xususiyatlarini o'rganish borasida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy fransuz tili sifatlari intensivlik kategoriyasining fransuz tili doirasida to'la lingvostilistik tadqiqini topmaganligi ushbu mavzuni tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2022-yil 10-fevraldagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya fan va texnologiyalar rivojlanishining:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998> (Murojaat qilingan sana: 02.10.2022.)

I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fransuz tili sifatlarida intensivlik kategoriyasining lingvostilistik tahlili jahon tilshunosligida Sh.Balli, J.Damuret, E.Pishon, F.Bryuno, V.G.Gak, L.I.Iliyalarining² tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. Intensivlik kategoriyasi rus tili materiali doirasida A.N.Polyanskiy, V.P.Musiyenko, V.V.Akulenko, E.V.Belskaya, I.V.Revenko, G.I.Radchenko, I.A.Kokina, M.V.Bondarenkolar³ tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, ingliz tili materiali doirasida V.R.Bagdasaryan, I.G.Beruchashvili, L.Y.Gerasimova, E.Sepir, D.Bolinjer, E.N.Sergeyeva, K.M.Suvorina, O.F.Shevchenko, E.I.Sheygal, I.I.Turanskiy, E.L.Shamsutdinova, O.D.Xarchenko, A.I.Ziyayevlar⁴ tomonidan o‘rganilgan. Intensivlik kategoriyasining fransuz tili materiali doirasida L.V.Shilovskaya, M.V.Bondarenko, N.G.Brusnetsova, L.V.Vorobyova, M.B.Metsler, V.S.Neverova, L.V.Nekrasova, I.V.Udovenko⁵ tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. O‘zbek tilshunosligida sifat darajalari borasida O.Bozorov, A.Nurmonov, Sh.Shahobiddinova, G‘.M.Xoshimov, J.Jumaboyeva, S.N.Ivanov, H.Ne‘matov, G‘.Zikrillayev, A.N.Kononov, T.I.Grunin, A.G‘ulomov, F.Is‘hoqov, A.Madrahimov, Z.Ma‘rufov, M.Asqarova, G‘.Abdurahmonov, M.Sodiqovalar tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lsa, intensivlik kategoriyasining fransuz va o‘zbek tillari doirasidagi

² Damurette J. & Pichon E. Des mots à la pensée. Essai de Grammaire de la langue française. – Paris: 1911-1930. – 4552 p; Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Иностранная литература, 1961. – 412 с; Brunot F. La pensée et la langue. – Paris, 1965. – 391 p; Илия Л.И. Очерки по грамматике современного французского языка. – Москва: Высшая школа, 1970. – 175 с; Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. – Москва: Высшая школа, 1986. – 832 с.

³ Полянский А.Н. Категория интенсивности признака в русском языке. – Ленинград, 1978. – 171 с; Кокина И.А. Языковые средства выражения семантики интенсивности в произведениях А.П. Чехова о детях и для детей. кандидат филологических наук. – Ростов-на-Дону, 2001. – 171 с.

⁴ Bolinger D. Degree words. – Paris: The Hague, 1972. – 324 p; Убин И.И. Лексические средства выражения категории интенсивности в русском и английском языке: Дисс. .. канд. филол. наук. – Москва, 1974. – 179 с; Суворина К.М. Интенсивы в современном английском языке: Автореф. дис. ..канд. филол. наук. – Москва, 1976. – 21 с; Шевченко О.Ф. Именные сочетания-интенсификаторы качественного признака (на материале современного английского языка). – Киев, 1978; Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке. – Москва, 1981. – С.13-22; Беручашвили И.Г. Системные и речевые интенсификаторы в современном английском языке. – Тбилиси, 1986. – 420 с; Туранский И.И. Содержание и выражение интенсивности в английском языке: дис. ... д-ра филол. наук. – Новгород, 1990. – 310 с; Харченко О.Д. Деинтенсификация оценочных конструкций в современном английском языке: Дисс. .. канд. филол. наук. – Ярославль, 2002. – 156 с; Зияев А.И. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти: Филол.фан.ном...дисс. афтореф. – Тошкент, 2009. – 49 б.

⁵ Воробьева Л.В. Средства выражения интенсивности признака, обозначенного именем прилагательным, в современном французском языке. – Киев, 1968; Мецлер М.Б. Способы выражения интенсивности действия в современном французском языке (интенсификаторы глагола типа à grands coups): Дисс. .. канд. филол. наук. – Москва, 1974. – 220 с; Бруснецова Г.Н. Высказывания высокой степени оценки в современном французском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Москва, 1985. – 22 с; Некрасова Л.В. Прагматические и текстообразующие функции французских наречий на -ment: Автореф. дис. .. канд. филол. наук. – СПб, 1994. – 19 с; Неверова В.С. Категория интенсивности качественной характеристики в современном французском языке. – Н.Новгород, 1997; Бондаренко М.В. Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексической парадигмы (на материале современного французского языка): Дисс. .. канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – 138 с; Удовенко И.В. Структурно-семантические и функциональные особенности французских интенсификаторов процессуального признака: Автореф. дис. канд. филол. наук. – К., 2005. – 22 с; Шиловская Л.В. Средства выражения ослабленной интенсивности действия и состояния в современном французском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 22 с.

chog‘ishtirma tadqiqi Z.X.Raimjonov⁶ tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda mazkur muammoni yoritishga xizmat qildi. Zamonaviy fransuz tilshunosligida ham intensivlik kategoriyasini ilmiy-nazariy tahlil qilishda turli qarashlar mavjud bo‘lib, uning tilshunoslikda aks etishi turli davrlarda o‘zgarib, rivojlanib, yangi ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, K.Romero, M.Noayilarning⁷ tadqiqot ishlari shular jumlasidandir. Zamonaviy fransuz tilidagi yangi lisoniy hodisalarni kuzatish so‘nggi yillarda fransuz tilshunoslarining tadqiqot ishlari sifatning orttirma darajasini ifodalash, xususan, mutlaq orttirmaning shakli masalasini boshqacha talqin qilish zaruriyatini to‘la isbot qiladi. Shuningdek, zamonaviy fransuz tilida sifat intensivligi vositalarining tasnifi masalasi ham hanuzgacha hal qilinmaganligi ushbu muammoning dolzarbligini ta‘minlaydi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda mazkur tadqiqot lingvostilistik, struktur-semantik yondashuv doirasida sifatlarda intensivlik kategoriyasining fransuz tilidagi tizimli-strukturaviy, kontensiv, funksional, nutq uzusi me‘yoriy qirralarini o‘rganishdagi dastlabki qadam hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Andijon davlat chet tillari institutining “Ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni o‘rganishni yanada rivojlantirishning afzalliklari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajariladi.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy fransuz tilida sifat intensivlik kategoriyasini ifodalovchi vositalarning lingvostilistik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

fransuz tili sifatlarda intensivlik kategoriyasi haqida jahon tilshunosligida bildirilgan fikr-mulohazalarga munosabat bildirgan holda sifatlarda intensivlik kategoriyasining ta‘rifini berish;

fransuz tilida sifat intensivligi kategoriyasini ifodalashning turli lisoniy xususiyatlarini o‘rganish va funksional-semantik jihatdan tadqiq etish;

fransuz tilida ijobiy/salbiy kuchaytiruvchi formantlarning turlari va ularning struktur modellarini aniqlash;

⁶ Маъруфов З. Ўзбек тилида сифатларнинг қиёсий даражалари. – Тошкент: А.С.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари, 1949. – С.131-143; Исхаков Ф.Г. Имя прилагательные. ИСГТЯ, II, – С.143-145; Мадраҳимов А. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир. Изд. АН Уз ССР, Серия общественных наук, 1957. –№1. – С.41-47; Иванов С.Н. Родословное древо-тюрок Абул-Гази-Хана. Грамматический очерк. (Имя и глагол. Грамматические категории). –Тошкент: Фан, 1969. – 204 с; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. –Тошкент: Фан, 1989. – 192 б. –Б.155; Зикриллаев Н. Ўзбек тили морфологияси: Филологик ихтисосликлар учун қўлланма. – Бухоро: НС, 1994. – 164 б. Б. –129; Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент: 1997; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 164 б.; Хошимов Ф.М. Турли тизимли тилларда сифатлар даража категориясининг қиёсий-типологик назарияси ва таржима муаммолари // Chet tilda madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishning dolzarb masalalari. Ilmiy-ta‘limiy anjuman materiallari, Toshkent, 2017. – В.154-158. Жумабоева Ж.Ш. Турли тизимли тилларда лексик ва стилстик градуономия. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017; Раимжонов З.Х. “Француз ва ўзбек тилларида интенсивлик категориясининг чоғиштирма тадқиқи”. Филол.фан.бўйича фалсафа докт. (PhD) ..дис.автореф. – Тошкент, 2019. – 49 б.

⁷ Noailly M. L’adjectif en français – Ophrys: Gap-Paris. 1999. – 168 p.; Romero C. L’Intensité en français contemporain: analyse sémantique et pragmatique, Thèse de doctorat, Université Paris 8. – Saint-Denis, 2001. – 556 p.

fransuz tilida sifat intensivligini kuchaytiruvchi ravish, frazeologik birlik, leksik takror va affiksalar vositalari bilan ifodalanishini o'rganish hamda sifat intensivligi kategoriyasini zamonaviy fransuz tilining turli uslublari doirasida tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida fransuz tilida intensivlik darajalarini beruvchi sifatlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini zamonaviy fransuz tilida intensivlik kategoriyasini ifodalovchi sifatning leksik-semantik, struktur va affiksalar-stilistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning mavzusini yoritishda lingvostilistik tahlil, diaxron va sinxron tahlil, struktur-semantik tahlil, antonimik tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

zamonaviy fransuz tilida sifat intensivlik kategoriyasining miqdor, me'yor, kuch, daraja, obyektiv va subyektiv-baholash intensivligi, nisbiy va mutlaq darajalar kabi lisoniy xususiyatlari tizimli o'rganilib, semantik-funksional jihatdan ijobiy/salbiy kuchaytiruvchi formantlarning lingvostilistik ahamiyati ochib berilgan;

fransuz tilida sifatning intensivlik kategoriyasini namoyon bo'lishida leksik va emotsional-ekspressiv vositalar hamda ijobiy/salbiy kuchaytiruvchi formantlarning darajalanish parametrlari *ravish + sifat, sifat + sifat, "-ment" ga yakunlanuvchi ravish + sifat* struktur va distributiv modellari orqali aniqlangan;

sifat intensivligining aktuallashtirishda fransuz tilining og'zaki va yozma kontekstlarida faol qo'llanuvchi ravish komponentli frazeologik birliklar hamda leksik takror (reduplikatsiya) hodisasining obrazlilik, emotsional-ekspressivlikni ta'minlashi isbotlangan;

zamonaviy fransuz tilida sifat intensivligi kategoriyasining stilistik xususiyatlari ilmiy (tibbiy, texnik) va publitsistik (matbuot, reklama) uslublarda prefiksalar birliklar intensivlikning kuchli, suffiksalar birliklar esa kuchsiz darajalanish jihatlari ifodalashi hamda ularning lingvistik kontekstlardagi o'zaro munosabati orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

oliy o'quv yurtlarining yuqori bosqich talabalari va magistrantlariga nazariy grammatika, stilistika, leksikologiya va matn lingvistikasi fanlari bo'yicha ma'ruzalar va maxsus kurslar o'qitishda foydalanilgan;

zamonaviy fransuz tilida sifat intensivlik darajalarining ifodalanishi tamoyillari metodikasi ishlab chiqilgan;

sifat intensivligi darajalarini ifodalashning leksik-semantik vositalarini aniqlash orqali chiqarilgan xulosalar amaliy jihatdan isbotlangan;

tadqiqotning amaliy natijalaridan nazariy grammatika va stilistika fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma va darsliklar tayyorlashda asos bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar lingvostilistik tahlil, struktur-semantik modellar vositasida asoslab berilganligi, nazariy fikr va mulohazalarning amaliyotga

joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda fransuz tilida sifat intensivligini ifodalash vositalarining semantikasi, ularning sintaktik vazifasi hamda stilistik bo'yog'i tadqiq etilgan bo'lib, mazkur kategoriyaning fransuz tili va adabiyoti, fransuz tili grammatikasi va stilistikasi, matn sharhi va tahlili hamda uslubshunoslikka oid ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirish va kengaytirishda ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ilmiy natijalarining amaliy ahamiyati qo'lga kiritilgan ma'lumotlar va materiallar, nazariy grammatika, stilistika, tarjima nazariyasi va amaliyoti, matnning lisoniy tahlili fanlari hamda zamonaviy fransuz tilini o'rganishda til kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy tatbig'ini topishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Tadqiqotning nazariy taklif, amaliy tavsiya va xulosalari quyidagilarga tatbiq etilgan:

dissertatsiyadagi fransuz tilida umumjihatli semantik kategoriya bo'lgan sifat intensivligi tilning xilma-xil sathlarini qamrab olishi, ijobiy/salbiy kuchaytiruvchi formantlarning o'zaro leksik va grammatik umumiylik bo'yicha bog'lanishi, frazeologik birliklar semantik jihatdan o'xshash emasligi, sifat intensivligi darajasini ifodalovchi affiksial shakllar eng sarmahsul usul sifatida funksional jihatdan sifat intensivligi kategoriyasini ifodalashning vositalari tizimida yetakchi o'rinni egallashiga doir xulosalardan Andijon davlat universitetida 2022-2023-yillarda bajarilgan № IL-402104213 raqamli "O'zbek tilida elektron lingvistik-ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" davlat innovatsion-tadqiqot doirasidagi grant loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universiteti 2024-yil 20-avgustdagi 39-08-802-son ma'lumotnomasi). Natijada nutqiy qo'llanishda o'ziga xoslik kasb qiluvchi ayrim til birliklarining tavsifi yanada yorqinlashgan;

zamonaviy fransuz tilida sifat intensivligi kategoriyasining morfologik, leksik, sintaktik, frazeologik sathlarning lisoniy vositalari hamda ushbu birliklarning leksik-stilistik maydonida ifodalanishi kabi xususiyatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalaridan Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan 2024-yil 16-17-may kunlari tashkil etilgan "Frankofon teatr festivali" doirasida "So'zlar zavqi" pyesasida foydalanilgan. (Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasining 2024-yil 20-maydagi ma'lumotnomasi). Natijada ishtirokchilarning fransuz tilida sifatlar intensivligi mohiyatini tushunishga va fransuz tili nutq ifodalanishida intensivlikning lingvostilistik nuqtai nazaridan muloqot qobiliyatlarini oshirishga muvaffaq bo'lingan;

fransuz tilida narsaning belgisini ifodalash vazifasini bajaruvchi barcha til elementlarining konkret namoyon bo'lishida miqdor o'zgarishlariga uchrashi, hamda belgining sifat bilan ifodalangan semantik chegaralari nihoyatda elastik va harakatchan ekanligi haqidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalaridan "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharriyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon", "O'zbekiston yoshlari" nomli eshittirishlarning 2024-yil yanvar va fevral oylaridagi sonlarida tadqiqot yuzasidan suhbatlar bo'lib o'tgan. ("O'zbekiston" Milliy

teleradiokompaniyasining 2024-yil 26-fevraldagi O‘z/k-04-36-286-son ma’lumotnomasi). Natijada sifat intensivligi adabiy, badiiy va media tilida keng qo‘llanuvchi, nutqning emotsional-ekspressiv jihatlarini ochib beruvchi muhim manba sifatida tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 maqola (1 tasi xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan ilmiy hamda badiiy adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy qiymati, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hozirgi zamon tilshunosligida sifat intensivligi kategoriyasining nazariy asoslari”** ga bag‘ishlangan bo‘lib, jahon tilshunosligida intensivlik tushunchasining ilmiy o‘rganish tarixi, tasnif va tavsiflari, sifatlarning nisbiy va orttirma darajalari hamda intensivlik kategoriyasi kabi masalalar talqini taqdim etilgan.

Bobning birinchi fasli **“Tilshunoslikda intensivlik kategoriyasiga doir nazariy qarashlar”** tahliliga bag‘ishlangan. Intensivlik tushunchasi tilshunoslikning asosiy kalit elementlaridan biri hisoblanib, u ma’lum bir til birligining miqdori, kuchi, muhimligini izohlashga xizmat qiladi. Sh.Ballingning intensivlik haqidagi mulohazalari⁸ asosida ayrim tilshunoslar o‘z asarlarida intensivlik tushunchasini alohida miqdoriy xarakterning yoki me’yor tushunchasining sohasiga kiritish faktini tushuntiradi. Boshqa tilshunoslar esa intensivlikni sifat tushunchasiga qarshi qo‘yadilar⁹.

XX-XXI asr fransuz tilshunoslarining tadqiqot ishlarida “daraja”, “me’yor”, “miqdor” terminlarini bir-biriga tenglashtirish uchrab turadi, “intensivlik” termini ko‘pincha “kuchaytirish” ma’nosida qo‘llaniladi.

⁸ Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Пер. с фр. Изд.3, 2009. – С. 93.

⁹ Brunot F. Histoire de la langue française, IV. – Paris: Colin, 1660-1715. – P. 48. Hultenberg H. Le renforcement du sens des adjectifs et des adverbes dans les langues romanes. – Forgotten Books, 2018. – 158 p. Nilsson-Ehle H. Les adverbes en -ment compléments d’un verbe. – Lund, 1960. – P. 120.

Masalan, F.Bryunoning “La pensée et la langue” nomli mashhur risolasida “miqdor” va “o‘lchov” atamaları bir-birini almashtiruvchi tushunchalar sifatida qo‘llaniladi¹⁰. Mazkur ishda “daraja” belgining me‘yorini bildirish uchun qo‘llanilsa, “intensivlik” esa ko‘pincha giperbola deb tushuniladi.

G.Gyultenbergning “Le renforcement du sens des adjectifs dans les langues romanes” nomli tadqiqot ishida¹¹ “intensivlik” “kuchaytirish”ning sinonimi sifatida tavsiflanadi hamda muallif tomonidan kuchaytirish vositalarini tasniflashda kichik guruhlardan birini bildirish uchun qo‘llanildi.

Intensivlikni bunday tor doirada tushunishga daniyalik tilshunos olim X.Nilson-Ele e‘tiroz bildiradi va intensivlik tushunchasi tasnifning umumiy prinsipi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, deb hisoblaydi¹². Biroq X.Nilson-Ele “intensivlik” tushunchasi sifat bilan ifodalangan belgiga qaraganda, amaliy natija beradigan belgiga ko‘proq mos keladi, deya fikr bildiradi. U sifatning miqdor gradatsiyasini berish uchun boshqa - “daraja” termini mavjudligini ta‘kidlaydi.

Mazkur kategoriyaning tilshunoslikka oid adabiyotlarda quyidagi ta‘riflari uchraydi:

1. Fonetik nuqtai nazardan “intensivlik” tovushning quvvat darajasini yoki amplitudasini bildiradi. U detsibellarda o‘lchanadi va tovush balandligini tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin”. Fransuz tilshunosi A. Martinening ta‘rifiga ko‘ra, intensivlik prosodik xususiyatlardan biri bo‘lib, u segment yoki segmentlar guruhining tovush hajmini o‘zgarishiga taalluqlidir.

2. Semantikada “intensivlik” so‘z, ifoda sifatining kuchayishi yoki darajasini bildiradi”. Fransuz tilshunosi A. Kuliolining fikricha, intensivlik jumladagi predikatning kuchli yoki kuchsiz tomonlarini farqlash imkonini beradigan semantik o‘lchovlardan biridir.

3. Grammatik jihatdan “intensivlik” qo‘shimchalar yoki o‘ziga xos tuzilmalar yordamida ifodalanadi.

4. Pragmatik ta‘rifga ko‘ra, “intensivlik” nutqning ekspressivligi yoki hissiy ta‘siri bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, kuchli ovoz ohangida aytilgan jumla kuchli his-tuyg‘u yoki chuqur ishonchni ko‘rsatishi mumkin. G. Giyyom intensivlik gapning semantik mazmunini kuchaytirish yoki susaytirishini belgilash imkonini beruvchi ekspressiv modallikdir deya ta‘rif beradi¹³.

Sifat intensivligi darajalarining kategoriyasi yetarli darajada keng va u o‘z navbatida, quyidagi gradatsiyalar bilan taqdim qilinishi mumkin: *keragidan ortiq, yuqori, o‘rtacha, kam, taxminiy, kuchsiz, nolga teng daraja*. Sifat intensivligining yuqori darajasi (*keragidan ortiq, elyativ va katta*) sifat intensivligi darajalarining ichki tizimidagi eng keng kategoriya hisoblanadi. U kuchaytiruvchi vositalarning katta miqdori bilan ifodalangan.

¹⁰ Brunot F. Histoire de la langue française, IV. – Paris: Colin, 1660-1715. – P. 48.

¹¹ Hultenberg H. Le renforcement du sens des adjectifs et des adverbes dans les langues romanes. – Forgotten Books, 2018. – 158 p..

¹² Nilsson-Ehle. H., Les adverbes en -ment compléments d’un verbe. Lund, 1960. – P.120.

¹³ Ladefoged P., & Johnson K. A Course in Phonetics. – Cengage Learning, 2011. – 307 p; Martinet A. Économie des changements phonétiques. – Berne: A.Francke. 1955, – P.217-218; Culioli A. Pour une linguistique de l’énonciation. – Paris: Ophrys, 1990. – P.49-50; Huddleston, R., & Pullum, G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – P.525. Cambridge University Press. 2002; Benveniste, É. Problèmes de linguistique générale II.– Paris: Gallimard, 1957. – P.231.

O.Bozorov o‘zbek tilida darajalanish hodisasini, jumladan, morfologik graduonimiyani maxsus tadqiq qilar ekan: “An’anaviy tavsifga ko‘ra daraja kategoriyasi ichki, ya’ni xususiy grammatik ma’nosiga ko‘ra “oddiy – qiyosiy – orttirma” kabi tasnifga ega bo‘lsa, keyingi ishda “orttirma – ozaytirma – qiyosiy”, “oddiy (normal) – orttirma – ozaytirma, ozaytirma – orttirma” kabi klassifikatsiya uchramoqda” deya fikr bildiradi¹⁴.

Turli vaqt va makonlarda olib borilgan tadqiqot ishlarida keltirilgan intensivlik tushunchasiga berilgan ta’riflarini o‘zaro taqqoslash quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Intensivlik – bu keng semantik kategoriya bo‘lib, uning asosida umumlisoniy hodisa – kuchaytirish yotadi.

2. Intensivlik – umumiy, ko‘pjihatli tushunchadir, chunki tilning eng rang-barang (leksik, grammatik, stilistik va fonetik) vositalari sifat intensivligini ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin va sifat darajasining intensivligini ifodalashning grammatik muammosini o‘rganish leksik xarakterdagi muammolar bilan chambarchas qo‘shilib ketadi.

Birinchi bobning **“Zamonaviy fransuz tili sifatlarida intensivlik kategoriyasining lisoniy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi faslida sifat bilan ifodalangan belgining darajasi narsa belgilarining miqdor jihatdan namoyon bo‘lishi qiyoslashning natijasi ekanligi yoki ushbu narsadagi mutlaq belgining oddiy ta’kidlanishiga qarab, hozirgi fransuz tilida sifatning qiyosiy va intensivlik darajasi farqlanishi haqida fikrlar bildirilgan.

Sifatning belgi va miqdor darajalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va bog‘liqlik shunda namoyon bo‘ladiki, ma’lum belgi uning ma’lum miqdorisiz mavjud bo‘lmaydi, narsaning miqdor jihati esa narsaning ushbu sifati bilan belgilanadigan faqat ma’lum chegaralarda o‘zgarishi mumkin. Narsaning sifat va miqdor gradatsiyasining ko‘rsatkichi daraja hisoblanadi.

Sifat bilan ifodalangan belgining darajasi narsa belgilarining miqdor jihatdan namoyon bo‘lishi qiyoslashning natijasi ekanligi yoki ushbu narsadagi mutlaq (mumkin bo‘lgan normaga nisbatan kuchaytirilgan yoki kamaytirilgan) belgining oddiy ta’kidlanishiga qarab, hozirgi fransuz tilida sifatning qiyosiy va intensivlik darajasi farqlanadi.

Sifat darajasini ifodalash uchun ikkita lingvistik usul mavjud: nisbiy (relyativ) va mutlaq (absolyut). Sifatning nisbiy darajalari munosabatning ma’nosi bilan xarakterlanadi, uning asosida mantiqiy kategoriya (narsalarni bitta narsaning bir xil belgisi bo‘yicha boshqasiga yoki boshqa ko‘plariga qiyoslash, solishtirib ko‘rish) yotadi. Qiyosiy daraja va orttirma daraja nisbiy darajaning xususiy grammatik ma’nolari hisoblanadi. Qiyosiy shakl ikki bo‘lakli konstruksiyaga egadir, chunki narsalarni ularga xos bo‘lgan belgining soni bo‘yicha taqqoslash qiyoslash obyektisiz mumkin emas. Ushbu holda qiyoslash obyekti belgining o‘lchovi vazifasini bajaradi, u bitta yoki bir xildagi narsalarning butun bir qatori bilan ifodalanishi mumkin.

Orttirma daraja ma’nosiga ega bo‘lgan lotincha sifatlarga *infime*, *intime*, *extrême*, *suprême* sifatlari borib taqaladi. Bu sifatlarda lotincha shakllar bilan semantik

¹⁴ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.23–94.

aloqasini yanada ko‘proq yo‘qotgan va shuning uchun ular *plus, moins, aussi* ravishlari bilan ancha erkin birikadi: *plus intime, moins extrême*.

O‘zbek tilida ham intensiv tavsif semasiga ega til birliklari paradigmatic ko‘rinishda xuddi fransuz tilidagi kabi xususiyat kasb etdi. *-ish, -imtir, qip-, sap-, juda, eng, g‘irt, o‘ta, nihoyatda, benihoya, nur ustiga a‘lo nur, misli ko‘rilmagan darajada, naqadar go‘zal bu diyor* kabi til birliklari intensivlik ifodasi uchun xizmat qildi¹⁵.

Lotin yoki (orttirmani hosil qilishning bu usulini saqlab qolgan) italyan tilidan olingan arxaik shakllarga *-issime* suffiksi bilan yasaluvchi (masalan: *grandissime – très grand*) mutlaq orttirma hosilasini kiritish zarur, biroq mazkur hosilalar ko‘psonli emas va nomahsuldir.

Hozirgi zamon fransuz tili o‘zining tarixiy rivojlanishi davomida sifat darajalarining ikkita: *nisbiy* va *mutlaq* kategoriyalarini ifodalashda aniq tabaqalashtirishni qo‘lga kiritdi. Shakllarning bunday ko‘pfunksionalligi mantiqiy tartibdagi tushunchalarning bir-biridan farqlanmasligi bilan, shuningdek tabaqalashtirilgan grammatik shakllanmaganlik bilan izohlanishi mumkin. A. Doza qiyosiy darajalarning grammatik shakllari ularning mazmuniga qisman to‘g‘ri kelmasligini bu shakllar ma‘nolarining lotin tilida aralashtirilishi bilan tushuntirsa, K.Nyurop o‘zining “Grammaire historique de la langue française” asarida og‘zaki tilda qo‘llanilgan potensiyalangan va giperkorrekt shakllar haqida eslatib o‘tadi hamda quyidagicha misollar keltiradi¹⁶:

“*la très belle dame*”, “*la plus très belle dame*”,

“*la très plus horrible gent*”, “*la très plus merveilleuse espoire*”.

Muloqot jarayonida orttirma darajaning shakllari birmuncha boshqa vazifani bajaradi, chunonchi ular sifat bilan ifodalangan belgini qiyoslashning natijasi sifatida, bitta narsaning boshqalar ichidan ajratib olingani sifatida xarakterlamaydi, balki kuchaytiruvchi xarakterga ega bo‘ladi. Orttirma darajaning yetakchi, orttirma-ajratuvchi ma‘nosi, go‘yo ikkinchi o‘ringa suriladi, birinchi o‘ringa esa kuchaytiruvchi ma‘nosi chiqadi. Bunday shakllar ekspressiv-emotsional ma‘noni qo‘lga kiritadi hamda mutlaq orttirma daraja – elyativning shakllariga yaqinlashadi.

Fransuz tilining zamonaviy grammatikasiga bag‘ishlangan asarlarda ham orttirma darajaning *le plus, le moins* shakllari adverbial ma‘noga ega bo‘lishi va *très* kuchaytiruvchi vazifasini bajarishi mumkinligi haqidagi ko‘rsatmalarni uchratamiz. Ularda *le plus* ning har qanday daraja ravishi bilan sintaktik o‘zaro almashinishi mumkinligi haqida so‘z yuritiladi. Ammo shu bilan birga bu shakllarning ma‘nosi ularning sintaktik vazifalarida namoyon bo‘lishi hamda nisbiy orttirmaning semantikasi sintaktik qurshovga bog‘liq ekanligi haqidagi fikr aniq tatbiq qilinmagan.

Mazkur bobning “**Sifatlar intensivligini ifodalashda leksik va grammatik ma‘nolarning semantik-funksional ahamiyati**” deb nomlangan uchinchi faslida sifatlarda intensivlikni ifodalashda leksik va grammatik ma‘nolar ahamiyati, ularning o‘zaro bir-birlarini almashtirish xususiyatlari yoritib berilgan. Fransuz

¹⁵ Раимжонов З.Х. Француз ва ўзбек тилларида интенсивлик категориясининг чоғиштирма тадқиқи: Филол.фан.бўйича фалсафа докт. (PhD) ..дис.автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 20.

¹⁶ Dauzat A. Grammaire raisonnée de la langue française. – Paris: IAC, 1958. – P.130.; Nyrop K. Grammaire historique de la langue française. – LINCOM GmbH (January 1, 2012). – 464 p.

tilining eng zamonaviy grammatikaga oid adabiyotlarida sifatning nisbiy va mutlaq darajalarining aniq chegaralanishi beriladi, eiyativ shakllar sifat intensivligining mutlaq darajalari orasida qarab chiqiladi.

Sifat intensivligi darajalarini ifodalashning barcha tizimini o'rganish qiyoslashdan qat'i nazar o'z ifoda tizimiga ega bo'lgan sifatlarning qiyosiy darajalari kategoriyasidan ajratib olishga ko'maklashadi.

Sifat bilan ifodalangan belgining intensivligini kuchaytirish vositalari qisman jahon va fransuz tilshunoslari A.Bosredon, A.Kulioli, O.Dyukro, J.Goes, G.Gross, J.Kleyber, A.Martine, K.Mulinie, A.Melis-Pushulu, M.Noayi, K.Romero¹⁷ tadqiqotlarida o'rganilganligi tahlil etildi.

Mantiqiy tasnifning tarafdori G.Gyultenberg xilma-xil kuchaytirish vositalarini qamrab oladigan quyidagi oltita asosiy tushunchalarni farqlaydi¹⁸. Bular:

1. sof intensivlik tushunchasi;
2. miqdor tushunchasi;
3. cheklanganlik tushunchasi;
4. oqibatlilik tushunchasi;
5. qiyoslash tushunchasi;
6. baho tushunchasi.

K. Romero o'zining "L'Intensité en français contemporain: analyse sémantique et pragmatique" nomli tadqiqot ishida¹⁹ sifatning mutlaq darajalarini ifodalashning rang-barang vositalari ro'yxatini keltiradi. Til fikrning in'ikosidir, deganidan va bitta o'sha tushuncha, bitta o'sha fikr tilda turli-tuman vositalar bilan ifodalanishlari mumkinligidan kelib chiqib, til materialini, belgilardan kelib chiqib emas, balki g'oyalar va tushunchalardan kelib chiqib tadqiq qiladi. U fikrning umumiy kategoriyalarini ajratib ko'rsatadi va ularning tilda ifodalanish usullarini tasvirlaydi.

Sifat intensivligini ifodalashning mazkur vositalarini ikki guruhga bo'lish mumkin: *extrinsèques* va *intrinsèques*. Ular sifatning intensivligi tushunchasini o'zining ichki leksik ma'nosi bilan ifodalaydi. Bu vositalarning qatoriga o'zining semantikasi bo'yicha oz, katta yoki orttirma daraja ma'nosiga ega sifatlarni (*passable, suprême, extrême, parfait, superbe, excellent* va h.k.) kiradi, hamda *-issime* suffiksli sifatlarning eiyativ shaklini (*rarissime, grandissime*), *archi-*, *extra-*, *ultra-*, *super-*, *hyper-* prefikslarini, shuningdek sifatning yuqori darajasining ifodasi vositasi sifatida intonatsiyani kiritish mumkin.

¹⁷ Bosredon A. "Un adjectif de trop: l'adjectif de relation". – L'Information grammaticale, 1988. – P. 37; Culioli A. Pour une linguistique de l'énonciation: Domaine notionnel (vol. 3). – Paris, Ophrys. 1999, Ducrot O. Lexique et gradualité // La Lingüística francesa: gramática, historia, epistemología, Alonso E., Bruña M., Muñoz M. (éd.), Séville, Grupo Andaluz de Pragmática, 1996. – P. 191-205; Goes J. L'Adjectif: entre nom et verbe. – Paris: Bruxelles, Duculot. 1999; Gross G. Sur un emploi particulier de certains adjectifs de couleur // Studia romanica posnaniensia, 12, 1986. – P. 3-9; Kleiber G. La sémantique du prototype: catégories et sens lexical, – Paris: PUF, 1990; Martinet A. Grammaire fonctionnelle du français. – Paris, Didier / Crédif. 1979; Molinier C. Une classification des adverbes en –ment // Langue française, 88, 1990. – P. 28-40; Mélis-Puchulu A. Les adjectifs en –esque: d'abord des adjectifs construits // L'information grammaticale, 58, 1993. – P. 33-39. Noailly M. L'Adjectif en français. – Paris, Ophrys. 1999; Romero C. L'Intensité en français contemporain: analyse sémantique et pragmatique, Thèse pour le doctorat de Sciences du langage, Université de Paris 8, dirigée par Blanche-Noëlle Grunig, 1 volume, 2001. – 556 p.

¹⁸ Hultenberg H. Le renforcement du sens des adjectifs et des adverbes dans les langues romanes. Forgotten Books, 2018. – 158 p.

¹⁹ Romero C. L'Intensité en français contemporain : analyse sémantique et pragmatique, Thèse pour le doctorat de Sciences du langage, Université de Paris 8, dirigée par Blanche-Noëlle Grunig, 1 volume, 2001. – 556 p.

Ikkinchi guruhga sifatning yuqori darajasini ifodalovchi, o‘zlarining tashqi belgilari bo‘yicha birlashtirilgan vositalar kiradi. Ular quyidagilardir:

- | | |
|--|---|
| 1. iboralar: | <i>n’est-ce pas; s’il vous plaît;</i> |
| 2. belgining takrorlanishi: | <i>joli, joli; noir, noir;</i> |
| 3. miqdor ravishlari: | <i>très, fort, tout à fait;</i> |
| 4. ravishli iboralar: | <i>au premier, au dernier, à vingt et trois carats;</i> |
| 5. ravishning takrorlanishi: | <i>très, très malade;</i> |
| 6. ravish holi: | <i>extrêmement, excellemment, rudement;</i> |
| 7. ravish ma’nosidagi sifatlar: | <i>fin, beau, bon;</i> |
| 8. qotib qolgan qiyoslashlar hamda asosan so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan ko‘p sonli boshqa oborotlar: | <i>tout ce qu’il u a de, on ne peut plus, jusqu’à.</i> |

O‘zbek tilidagi daraja ma’nosini ifodalovchi vosita A.N.Kononov, T.I.Grunin, A.G‘ulomov, S.N.Ivanov, F.Is‘hoqov, A.Madrahimov, Z.Ma‘rufov, M.Asqarova, G‘.Abdurahmonov, H.G‘.Ne‘matov, M.Sodiqovalar²⁰ tomonidan tadqiq etilgan. Sh.Shahobiddinova²¹ sistem yondashuv asosida daraja kategoriyasini maxsus tadqiq etib, daraja hamda qiyos kategoriyasini farqlash lozimligi haqidagi qarashini ilgari suradi hamda, belgining darajasida qiyoslash bilan bir qatorda darajalanish ma’nosi ham borligi, ammo bu leksema sememasi xususiyatidan kelib chiquvchi holat ekanligini qayd etib, o‘zbek tilshunosligiga “Qiyoslash kategoriyasi”ni olib kiradi hamda uning ikki a‘zo [0] va [-roq]dan iborat ekanligi haqida fikr yuritadi.

A.I.Ziyayev o‘z tadqiqotlarida²², belgi miqdorining o‘zgarishi, aslida, undagi sifat xususiyatning ko‘payishi yoki ozayishi bilan bog‘liqligi, shu xususiyat orqali bir sifat yo‘nalishi, ikkinchi sifatning paydo bo‘lishiga olib kelishini aniqlaydi. Uning fikricha, ozayish/ko‘payish invariant hodisa bo‘lib, u boshqa, ya’ni qisqalik-cho‘ziqlik, qattqlik-yumshoqlik, tezlik-sekinlik, kuchlilik-kuchsizlik, balandlik-pastlik kabi o‘z sifatlariga ham ega bo‘lgan variant hodisalar uchun asos vazifasini bajarishini ta’kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan sifatning yuqori darajasining ifodasi haqidagi masalani qarab chiqish orqali mazkur shakllar bilan ifodalangan grammatik shakllar va tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarda grammatik shakllar (belgilar) polisemik, ya’ni bitta belgining o‘zi har xil tushunchalarni yetkazishlari mumkinligi, biroq ular o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish mumkin emas, degan xulosaga kelingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zamonaviy fransuz tilida sifat intensivligi kategoriyasining leksik-semantik va struktur xususiyatlari”** deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi **“Sifatlarda ijobiy/salbiy kuchaytiruvchi formantlar**

²⁰ Исхаков Ф.Г. Имя прилагательные. ИСГТЯ, II, – С.143-145; Мадрахимов А. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир. Изд. АН УзССР, Серия общественных наук, 1957. --№ 1. –С.41-47; Маъруфов З. Ўзбек тилида сифатларнинг қиёсий даражалари. – Тошкент: А.С.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари, биринчи китоб, 1949. – Б.131-143.

²¹ Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 164 б.

²² Зияев А.И. Интенсификация/деинтенсификация семантикасининг лексема ва фраземалар синонимик парадигмаларини шакллантириши // Сўз санъати халқаро журнали 5 - махсус сон. – Тошкент, 2020. – Б. 270. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-SI-5-45>.

darajalanish parametrlarining morfologik hamda semantik tavsifi” nomli faslida fransuz tili sifatlarida kuchaytiruvchi formantlarning darajalanish parametrlari fransuz tili misolida yoritiladi. Sifat intensivligi darajalari tushunchasi kuchaytiruvchi konstruksiyalarda o‘z ifodasini topadi. Bunday konstruksiyalarning asosini kuchaytiruvchi model tashkil etadi va u ikkita tarkibiy qismdan: kuchaytiruvchi formant (intensiv) va to‘liq ma’noli so‘zdan (sifat) iborat bo‘ladi. Kuchaytiruvchi formant vazifasida semantik planda sifatning (kichik, o‘rta, katta) intensivligi ma’nosini beruvchi so‘zlar birlashsa, sintaktik planda esa kuchaytirish vazifasini bajaradi. So‘zlarning bu razryadi tilda so‘zlarning leksik soddalashuvi va ularda kuchaytirishning yangi ma’nosini rivojlanishini ifoda qiladi.

Aniqlanayotgan predmetning belgisini ifodalaydigan kuchaytiruvchi konstruksiya bilan qo‘shilib, kuchaytiruvchi element belgi intensivligining gradasiyasini, shuningdek belgi nozik farqlarining yirik o‘zgarishlarini ifodalaydi. Sifat intensivligining mutlaq darajalari murakkab semantikaga muvofiq va haddan tashqari yuqoridan, haddan tashqari past darajaga: keragidan ortiq, katta, yetarli, taxminiy, kuchsiz, nol darajalarga ega bo‘lishi mumkin:

1. Keragidan ortiq daraja (*trop jeune, excessivement long, infiniment intéressant*).

2. Katta daraja (*très heureux, extrêmement méfiant, absolument sûr, totalement dissipé, fort mince, complètement épuisé, tout jeune*).

3. Yetarli daraja (*assez joli, suffisamment pur*).

4. Taxminiy daraja (*un peu fatigué, presque enfantin, légèrement humide, doucement doré*).

5. Kuchsiz daraja (*peu aimable, vaguement négatif*)

Har bir daraja ichida qo‘shimcha gradatsiya bo‘lishi, ya’ni har bir daraja kuchaytirilishi yoki susaytirilishi mumkin.

Sifat va ravish (*ravish + sifat*) birikmalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qayd qilinadiki, so‘z birikmalarining struktur tiplari va razryadlari tilda nominativ vositalar sifatida qo‘llaniladi. Yagona tushunchaning belgisi bo‘lib xizmat qilish xususiyati sifatning potensial belgisini ifodalovchi kuchaytiruvchi formantlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Fransuz tilida kuchaytiruvchi formantlar bilan taqdim qilingan sifat intensivligining mutlaq darajalarini ifodalovchi leksik-sintaktik vositalar nominativ vazifani bajaradi. Sifatning intensivligini ko‘rsatuvchi kuchaytiruvchi formantlar bir xil emas va ham konstruktiv, ham ma’no jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ulardan eng ko‘p uchraydigan ko‘rinishlari quyidagilardir:

1. sifatning ravishlar bilan birikmalari: *bien heureux, infiniment aimable, formidablement sympathique, rudement bon, durement éclairé, joliment drôle, divinement belle; excessivement épuise, terriblement banal, extraordinairement content, énormément riche;*

2. sifatning ravishli oborotlar bilan birikmalari: *on ne peut plus sérieux; on ne peut plus délicat, tout ce qu’il u a de plus (tout ce qu’il u a de) agréable; des plus beaux, des mieux correct; ingénieux au possible; exacte au dernier point;*

3. frazeologik birikmalar: *grand comme tout, fort comme pas un, léger comme une plume, jaloux comme un tigre, solide comme un chêne, rouge comme une pivoine, vieux comme le monde;*

4. leksik takrorlar: *joli, joli; trop, trop intéressant*.

Tadqiq qilinayotgan konstruksiyalarda markaziy komponent vazifasida sifatlar, shuningdek sifatdoshlar (*bien éclairé, terriblement éloigné, fort altéré, très connu, totalement désorienté, absolument désemparé, complètement épuisé, extrêmement dévoué*) olinadi. Tadqiqot materiallarining tahlili shuni ko'rsatdiki, sifatdoshlar o'ziga bog'liq formantlar bilan sifatlarning birga qo'shib ishlatishi mumkinligi bilan bir xildir. Hozirgi kunda tilshunoslik adabiyotlarida sifatdoshlarni alohida so'z turkumi sifatida ajratish masalasi munozarali bo'lib qolmoqda. Eng ko'p ishlatiladigan konstruksiyalardan biri sifatlarning kuchaytiruvchi ravishlar bilan birikmalari hisoblanadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Fransuz tilida ijobiy/salbiy kuchaytiruvchi formantlarning struktur modellari tahlili”**ga bag'ishlangan. Umumiy tilshunoslik, til nazariyasiga oid tadqiqotlarda, shuningdek zamonaviy fransuz tili grammatikasiga oid adabiyotlarining *-ment* ga yakunlanuvchi ravishlar haqidagi bo'limlarida, sifatlar bilan birikmalarda mazkur ravishlarning fe'llar bilan birikmalaridan farqli ravishda prepozitsiyada turishi ta'kidlanadi. Fe'llar bilan birga qo'shib, *-ment* bilan yakunlanuvchi ravishlar ish-harakatning yoki holatning xususiyatini ifodalaydi va odatda fe'llardan keyin turadi.

Hozirgi fransuz tili grammatikasining mualliflari J.-K. Shevale, K.B. Benvenist va boshqalarning ta'kidlashicha²³, sifat darajasini ifodalovchi *-ment* bilan yakunlanuvchi ravishlar sifatga nisbatan postpozitsiyada ham qo'llanishi mumkin (*infiniment beau* va *beau infiniment*). Biroq ushbu ravishlarning daraja ravishlari vazifasida postpozitsion qo'llanilishi so'zlashuv tilining doiralari bilan chegaralanib qoladi va bunday qo'llanilish B. Potyening fikriga ko'ra noyob istisno hisoblanadi²⁴.

Komponentlarning chiziqli joylashuvi nuqtai nazaridan kuchaytiruvchi formantlarning xususiyati ko'p jihatdan ularning midoriy tarkibi va komponentlarining o'zaro munosabatlari orqali murakkablashtirilgan strukturaning tahliliga ko'maklashadi. Ko'rib chiqilayotgan kuchaytiruvchi formantlar ikki bo'laklilik bilan xarakterlanadi: *Adv + A*. Mazkur birikmalar ikki bo'laklilikni saqlagan holda, ravishlarning ma'lum ketma-ketlikda oshirilishi hisobiga qo'shimcha kengayishi mumkin (*fort peu nombreux, bien trop peu aimable, un peu trop frais*).

Kuchaytiruvchi formantlar o'zlarining tarkibi bo'yicha farq qiladi hamda sodda strukturali formantlar va murakkablashtirilgan strukturali formantlariga bo'linadi. Sodda formantlar sifatdan va ravishdan tashkil topadi, bu D_1A distributiv formulaga mos keladi (*très jolie, bien intéressant, énormément grand, infiniment long*); murakkablashtirilgan strukturali formantlar bosh va tobe komponentdan tashkil topadi, bu ravishlarning ikki qatorli, ba'zan esa uch qatorli joylashuvi bilan ahamiyatlidir. Ularning distributiv formulasi quyidagicha ifodalanishi mumkin: D_2D_1A (*un peu trop grand, si peu intéressant*) yoki $D_3D_2D_1A$ (*bien trop peu aimable, vraiment fort bien usé*).

²³ Chevalier J.C., Benveniste C.B. Grammaire Larousse du français contemporain. – Paris: Editions Larousse, 1991. – 494 p.

²⁴ Pottier B. Systématique des éléments de relation. Etude de morpho-syntaxe structurale romane. – Librairie Klincksieck, 2018. – P. 153-154.

Ikkinchi qatorning intensivlari rovida *très (très peu), si (si peu), fort (fort peu), aussi (aussi peu), assez (assez peu), tellement (tellement peu, tellement plus, tellement moins), beaucoup (beaucoup trop, beaucoup plus, beaucoup moins)* ravishlari ishlatiladi.

Plus (beaucoup plus, tellement plus) moins (beaucoup moins, tellement moins), peu (assez peu, très peu, fort peu, si peu, tellement peu, trop peu) ravishlari esa bevosita sifatdan oldinda joylashib, faqat birinchi qatorning intensivlari bo'lishi mumkin.

Shuningdek, N_2 yoki N_1 pozitsiyasida qo'llaniladigan *trop (trop peu, beaucoup trop)* ravishini ham ko'zda tutish lozim:

C'est une tempête qui est arrivée, qui est passée, *bien trop forte* pour vous, si violente qu'on l'aurait jamais crue possible rien qu'avec des sentiments... (Louis-Ferdinand Céline, Voyage au bout de la nuit. p.553).

Au bout de quelques kilomètres, elle eut soudain très chaud, *beaucoup trop chaud*, les parois se rapprochaient, la caisse rétrécissait à vue d'œil. (M.Levy, Noa. p.192).

Miqdor ravishi razryadiga o'tgan daraja ravishlari va *-ment* qo'shimchasiga yakunlanuvchi ravishlar bilan ifodalangan so'z birikmalarida bir xil distributsiya bo'lmaydi. Kuchaytiruvchi formantlarda komponentlarning birlashuviga bitishuv yo'li bilan erishiladi. Murakkablashtirilgan strukturaning formantlari belgi tushunchasini konsentratsiyalashgan (boyitilgan) shaklda ifodalaydigan mustahkam komplekslarni hosil qiladi. Kuchaytiruvchi formantlarlarning komponentlari o'rtasidagi munosabatlar kvalifikativ bo'lib, mazkur birikmalardagi ravishlarning sifatlarga nisbatan kontaktli joylashuvi va prepozitsiyasi ularda atributiv aloqaning mavjudligidan guvohlik beradi, shuningdek murakkablashtirilgan strukturaning formantlarlari komponentlarining ritmik-intonatsion birlashganligida ham o'z tasdig'ini topadi.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida “**Fransuz tilida frazeologik birlik va leksik takrorlar sifat intensivligini ifodalovchi vosita sifatida**” tadqiq etilgan. Fransuz tilida sifatning intensivlashuvi vositasi bo'lib xizmat qiluvchi frazeologizmlar orasida *sifat + comme* ravishi + *ot* kuchaytirish modeli bo'yicha qurilgan frazeologik o'xshatishlar hamda leksik takror (reduplikatsiya) eng ko'p qo'llanilishi fransuz tili materiallari asosida ochib berilgan.

Qadimgi fransuz tilida bunday tasviriy qiyoslashlar ajratib ko'rsatuvchi-qiyoslovchi ma'nosiga ega edi va tez-tez qo'llanilishi sababli ular turg'un iboralarga aylandi hamda, semantik jihatdan sifatning yuqori darajasini ifodalash vositalari hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, frazeologik o'xshatishlar komparativ konstruksiyalarning strukturasi saqlab qolib, sifatning yuqori darajasini kengaytiruvchi modellashtirilgan formantlarni namoyon qiladi: *clair comme le jour, malade comme un chien, bête comme un âne, rapide comme le vent, vieux comme le monde, beau comme un ange, solide comme un chêne, etc.*

Bu *ot* komponent tomonidan o'zining leksik ma'nosining susayishi, ba'zan esa butunlay yo'qo'tilishi oqibatida sodir bo'ladi. Qiyoslash konstruksiyasining ikkinchi komponentini sifatni ifodalovchi so'zga nisbatan kuchaytiruvchi elementga qayta

ma'nolash, butun konstruksiyaga sifatning haddan tashqari yuqori bo'linmas ma'nosini bag'ishlaydi²⁵.

Ular tilning qolipga solingan so'z yoki iboralariga aylangan va lug'atlarda qayd qilingan. Frazologizmlarga xos bo'lgan emotsionallik bu iboralarda ko'pincha susaygan bo'ladi: *blanc comme neige, bête comme une oie, fort comme un bœuf, doux comme un mouton, entêté comme une mule, simple comme bonjour*, shuning uchun ular boshqa oborotlar bilan almashtirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

Bunday qiyoslash konstruksiyalari sifatning sezilarli emotsional intensivligining haddan tashqari yuqori darajasini ifoda qiladi. Zamonaviy fransuz adabiyotining namoyondalari o'z asarlarida bu birliklarni ishlatgan:

- De telle sorte, conclut Boris, que si le général mourait demain, elle serait *plus pauvre que Job*. (G.Leroux, Rouletabille chez le tzar. p.106).

Yuqorida keltirilgan birikmada qiyoslashning etaloni bo'lib xizmat qiladigan obraz va predmetlar o'z ma'nosini yo'qotadi, qiyoslash konstruksiyalari esa sifatning yuqori darajasini ifodalaydi xolos.

Mazkur modellar bo'yicha hozirgi fransuz yozuvchilarining asarlarida uchraydigan yangi obrazli qiyoslashlar yaratiladi. Ular ancha aniq xarakterga ega bo'lib, ularni yaratishda mualliflar kitobxonda ma'lum emotsiyalarni uyg'otish maqsadida yorqin aniq obrazlarni qo'llaydi. Bu individual-mualliflik deb ataluvchi qiyoslashlar hisoblanadi:

Rivière sortit pour tromper l'attente, et la nuit lui apparut *vide comme un théâtre sans acteurs*. (A. de Saint-Exupéry, Œuvres. p.52).

Ainsi je gravissais chaque jour, *chargé comme la bonne abeille*, le flanc de la montagne. (J.-P.Chabrol, Les Fous de Dieu. p.25).

Keltirilgan qiyoslashlarda sifatning yorqin, emotsional-ekspressiv o'ziga xosligi qiyoslash etaloni o'zining aniq obrazini saqlab qolishi bilan namoyon bo'ladi. Bu hissiy obraz tasavvurni uyg'otadi va tushunchaning butun manzarasini chizib beradi hamda ular nutqqa obrazlilik va emotsionallik bag'ishlaydi.

Reduplikasiya yoki leksik birliklarni takrorlash – bu struktur jihatdan fransuz tilida kuchaytirishning eng qadimiy va sodda usuli hisoblanadi. Ko'p tillarda leksik takrorlar ma'noni kuchaytirishning grammatik vositasi, ish-harakatning takroriyiligi yoki davomlilikini ko'rsatish, shuningdek sifat intensivligining yuqori darajasini ifodalashning keng tarqalgan vositasi hisoblanadi.

Sifatni intensivlashtirishning grammatik usuli sifatidagi takrorlash defis yoki vergul bilan birlashtirilgan bir xil leksik birliklarni (sifatni yoki ravishni sifat oldida qo'llashda) ikki marta, ba'zan esa uch marta takrorlashdan iboratdir:

joli, joli; grand, grand; fin, fin; très, très beau; trop, trop mince; fine-fine-fine; belle-belle.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Zamonaviy fransuz tilida sifat intensivligi darajasining affiksial-stilistik tadqiqi”** amalga oshirilgan. Mazkur bobning birinchi fasli **“Intensivlik ifodalovchi sifatlarni prefiksial hosil qilishning stilistik xususiyatlari”** ni ochib beradi.

Ishda fransuz tilida sifat intensivligini ifodalash, kuchaytiruvchi prefikslar (*archi-, extra-, hyper-, sur-, super-, supra-, ultra-*), shuningdek kichraytiruvchi

²⁵ Damourette J., et Pichon E. Des mots à la pensée. – Paris, 1911-1930, t. 11. – P. 409.

suffikslar (-*âtre*, -*asse*, -*et*, -*elet*, -*aud*) va -*issime* suffikslari bilan taqdim qilingan affiksial vositalari belgining haddan tashqari yuqori darajasini ko'rsatdi va mazkur bobda belgi intensivligini ifodalash vositalarining ko'p tarmoqli tizimining kichik qismi sifatida ko'rib chiqildi. Bu tipdagi prefiksial va suffiksli hosilalar mahsuldorlik darajasi bo'yicha farqlandi va belgining morfologik sathdagi modifikatsiyasi hozirgi fransuz tilida yagona sermahsul usul – prefiksatsiya orqali berilishi aniqlandi. Suffiksli hosilalarning nomahsuldorligi, sifat intensivligining kamayishi, o'z ifodasini asosan leksik vositalarda topganligi bilan izohlanadi. Bu esa zamonaviy fransuz tili rivojlanishining ichki qonuniyatlariga va analitizmga intilishiga aynan mos keladi.

Belgining kuchsiz, to'liq yoki yuqori intensivligi darajasini bildirish uchun xizmat qiladigan affiksial elementlarning umumiy xususiyati ularning ekspressivligi, emotsional boyitilganligi hamda nutqning ma'lum uslubiga hosligi hisoblanadi. Til materialining tahlili bu hodisa morfologik prefiksial tizimni hosil qilib, jadallik bilan rivojlanishni davom ettirayotganini ko'rsatdi.

Bu prefikslar bilan hosil qilingan yangi so'zlar fan va texnika, reklama va matbuot tilida paydo bo'lmoqda, adabiy tilga kirmoqda. Bu yangi paydo bo'lgan so'zlar adabiy tilga o'zlarining morfologik elementlari bilan birga kirishi barobarida, uning morfologik strukturasi ta'sir qilmay qolmaydi:

De même, il n'est pas question “de nier que l'on est bel et bien passé d'un monde artisanal à un monde hyperconcentré, demandant toujours plus de rationalisation et de rentabilité.” (“Le monde des livres”, L'édition littéraire dans le “cauchemar de Diderot”. Par Alain Beuve-Méry Publié le 11 mai 2006).

La France a, pour la première fois, effectué un essai en vol d'un missile hypersonique, a annoncé, mardi 27 juin, le ministère des armées. (“Le Monde” Publié le 28 juin 2023).

Darhaqiqat, flektiv tizimning yo'qolishi bilan paydo bo'lgan darajalarning prefiksial tizimi, yangi so'zlarning paydo bo'lishi va hosil bo'lishi orqali turli o'zgarishlarga uchraydi, ularning morfologik belgilari adabiy tilda g'oyib bo'ladi va umuman olganda, asta-sekin butun morfologik tizimni o'zgartirib yuboradi. Ijtimoiy omillar esa tizimning u yoki boshqa elementiga bevosita ta'sir ko'rsata olmay, bilvosita butun leksikaning majmui orqali barcha tizimning strukturasi samarali o'zgartirishi mumkin.

Bobning ikkinchi fasli “**Fransuz tilida sifat intensivligi darajasini ifodalovchi suffiksli birikmalar tahlili**”ga bag'ishlangan. Sifat intensivligini ifodalashning morfologik vositalariga kichraytirish-erkalash deb ataluvchi -*âtre* (*jaunâtre*, *douçâtre*, *bleuâtre*), -*et*, -*elet*, -*inet* (*maigrelet*, *blondinet*) suffikslarini, shuningdek fransuz tilining ilk yozma manbalarida uchraydigan -*ot* (-*otte*), (*pâlote*), -*aud* (*lourdaud*, *noiraud*, *sourdaud*), -*asse* (*bonasse*, *molasse*) suffikslari mansubdir.

Sifat intensivligini ifodalashning vositalarini tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda belgining kamayishi yoki kuchsizlanishini ifodalovchi suffikslar qarab chiqilmaydi. Buni mazkur suffikslar hosil qiluvchi shakllarning faqatgina tashqi tomondan tasavvur qilish bilan izohlash mumkin. Boshqacha aytganda, bu suffikslar, o'zlaricha emas, balki sifatning ma'nosidan kelib chiqib baho ma'nosiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, intensivlik - subyektiv baho kategoriyasi bilan bog'liq. Shuning uchun sifatlar intensivligini ifodalashning morfologik vositalari ko'rib chiqilar ekan, ularga kichraytirish-erkalash suffikslarini kiritish zarurligini ta'kidlash lozim. Suffikslardan *-elet*, *-âtre*, *-aud*, *-asse* ga tugaydigan sifatlarda sifat intensivligi darajasi ma'nosiga subyektiv munosabatning turli nozik ma'nolari qo'shiladi va bu shakllar sifatning yetishmasligini, me'yorning to'liq emasligini ifodalashi mumkin. Demak, kichraytirish-erkalash suffikslari subyektiv yoki baholash intensivligini yetkazishga xizmat qiladi va fransuz tilida ularning roli unchalik ahamiyatli emas. Fransuz tilshunoslari Sh.Bryuno, J.Maruzo va boshqalar²⁶ fransuz tilida suffiksli so'z hosil qilishning "atrofiyasi" haqida so'z yuritadi.

Suffiksli hosilalar haqidagi masalaga Sh.Balli o'zining "Linguistique générale et linguistique française" nomli asarida keng to'xtalib o'tadi. Suffikslar yordamida so'z yasashini so'zlarning progressiv tartibi nuqtai nazaridan qarab chiqar ekan, muallif suffiksli hosilalar progressiv tartibga ("*séquence progressive*") qarama-qarshi turishini ko'rsatib berdi. Shu bilan birga, Sh.Balling qayd etishicha, baholash suffikslari ("*suffixes appréciatifs*") fransuz tilida suffikslar yordamida so'z yasash tizimida alohida o'rin egallaydi, chunki ular so'zlarning progressiv tartibiga mos keladi²⁷. Darhaqiqat, otlarning yoki sifatlarning oldida aniqlovchi vazifasini bajarib, baholovchi (aniqlovchi) suffikslar aniqlanmishdan keyingi joyni egallaydi, bu so'zlarning progressiv tartibiga mos keladi (*maisonnette*, *maigrelet*, *jaunâtre*, *rougeâtre*, *bonasse*, *pâlot*). Bu suffikslar nomahsuldorligining asosiy sababini ularning u yoki boshqa so'zlarning semantik sinfini hosil qilishdagi erkin qo'llanilishida, shuningdek bu usulning fransuz tilining analitizm tendensiyalariga to'g'ri kelmasligida ko'radi.

Sifatning absolyut superlyativi hosil qilinadigan *-issime* suffiksi ham fransuz tilida kam tarqalgan suffikslardan hisoblanadi. O'zida kuchli emotsional quvvatni aks ettiradigan *-issime* suffiksi sifat intensivligining yuqori darajasini beribgina qolmay, boshqa nozik ma'nolarga ham ega bo'ladi. Mazkur suffiks yordamida muallif ba'zan mulohazaga o'zining kinoyaviy, gohida hazil munosabatini ifoda qiladi. Misol uchun, A.Morua "Prometey yoki Balzakning hayoti" romanida, Balzakning boyib ketish haqidagi ushalmaydigan fantastik rejalari haqida hikoya qilib, atributiv sifat "*richissime*" da yozuvchining amalga oshmaydigan bu tashabbuslariga o'zining kinoyaviy munosabatini izhor qiladi:

Malgré sa situation financière, "très rafferme"... il reconnaissait que si, stratégiquement, il était *richissime*, tactiquement il ne pouvait faire son échéance de fin de mois, ni dégager son argenterie. (A.Maurois. "Prométhée ou la vie de Balzac", p.311).

Mazkur suffiks bilan hosil qilingan shakllar yorqin emotsional tus bilan xarakterlanadi va absolyut superlyativni ifodalashning ekspressiv vositalariga mansubdir.

So'nggi bobning "**Sifat intensivligini ifodalashda til vositalarining o'zaro munosabati va lingvistik kontekstda almashinish imkoniyatlari**" nomli uchinchi

²⁶ Bruneau Ch. Regard d'ensemble sur la langue française d'aujourd'hui. – Paris, 1949. – P. 9-16; Marouzeau J. Notre langue. – Paris, 1955.

²⁷ Bally Ch. Linguistique générale et linguistique française. – Editions Francke Berne, 1965. – P. 249.

faslida kuchaytiruvchi elementlar yordamida hosil qilingan sifatlarning grammatik shakllari hamda sintaktik konstruksiyalari sifatning uning barcha rang-barangligida intensivlik darajasi umumiy ma'nosi bilan birlashtirilgan sinonimik variantlar kabi o'zaro munosabatlar tahlil etilgan.

Grammatik ma'no ifodalovchi parallel sinonimik vositalarning barcha kompleksi ochiq sinonimik qatorni tashkil qiladi. Daraja ma'nosi ularda turlicha ifoda qilingan, chunki kuchaytiruvchi elementlar darajaning emotsional-neytral ko'rsatkichlari bo'lishlari mumkin va ayni paytda intensivlik darajasi ob'ektiv tarzda ifodalangan. Ko'pincha intensivlar belgining yuqori darajasining umumiy xususiyatiga qo'shimcha emotsional ma'no bag'ishlab, emotsional-ekspressivlikni ifodalaydi.

Darajaning qo'shimcha tuslariga qaramasdan, sifatlarning grammatik shakllari va kuchaytiruvchi sintaktik konstruksiyalar bir-biri bilan o'zaro bog'lanishda bo'ladi va bunday sinonimik parallellar mutlaqo bir xil ma'noli bo'lmaydi. Ular bir-biridan qo'shimcha ma'no va ifodaviy o'zgaraligi, emotsional bo'yog'i bo'yicha ajralib turadi. Ular sifat darajasi tushunchasining umumiyliги bo'yicha munosabatdosh hamda bitta sinonimik qatorga mansubdir.

Quyidagi gaplarni solishtiramiz:

Boris voyait ses aisselles rasées et piquetées de points minuscules et durs, d'un *noir bleuâtre*: on aurait dit des têtes d'échardes profondément enfoncées. (J.-P.Sartre, L'âge de raison. p.50).

va

Chaque année l'onglet bleu mordait un peu plus sur le pétale rourpre. Sauf accident, la première rose *presque bleue* fleurirait vers 1970 ... (R.Vailland, Beau Masque. p.61).

Sifat intensivligini ifodalashning xilma-xil vositalarini biz sinonimik qatorlarga birlashtiradigan belgilar yuqorida keltirilgan sinonimik qatorlarga berilgan ta'riflarga to'liq mos keladi. Misol uchun, fransuz tilida belgini intensivlashtirishga xizmat qiladigan ravishlar uchun semantik o'zgarishlar va boshlang'ich ma'noning qisman desemantizatsiyasi shuningdek, tarixiy o'zgaruvchanlik ham xarakterlidir. Sifat intensivligini ifodalashning turli vositalari tilda sinonimik parallellarni hosil qiladi.

Sifatning oz, katta va haddan ziyod sifat darajasi gradatsiyasiga qarab uchta semantik guruhlar ko'zda tutiladi:

Birinchi guruhga sifatning oz darajasini ko'rsatuvchi sinonimik parallellar kiradi. Bular baholash suffikslari *-et (-ette)*, *-ot (-otte)*, *-elet (-elette)*, *-âtre*, *-aud*, *-as (-asse)* yordamida hosil qilingan, belgining noto'liq, zaif namoyon bo'lishini ko'rsatuvchi sifatlar va ular bilan munosabatdosh bo'lgan sintaktik konstruksiyalar – sifatning oz yoki taxminiy darajasini ifoda qiladigan *peu*, *un peu*, *presque*, *à peine*, *à peu près*, *quasi*, *assez*, *médiocrement*, *moyennement*, *légèrement* ravishlari bilan birikmalaridir.

Ikkinchi semantik guruhni *archi-*, *extra-*, *super-* intensivlik prefiksi yordamida yasalgan sifatlar hamda sintaktik konstruksiyalar – sifatlarning *très*, *fort*, *bien*, *tout à fait*, *extrêmement*, *partaitement*, *fortement*, *grandement*, *magnifiquement*, *hautement*, *terriblement* kabi kuchaytirish ravishlari bilan birikmalari tashkil qiladi.

Bu guruhning morfologik va sintaktik hosilalari sifat intensivligining katta darajasini ifodalaydi.

Uchinchi guruhga affiksial elementlar: *hyper-*, *sur-*, *ultra-* prefikslari va *-issime* suffiksi bilan yasalgan, sifatning haddan tashqari yuqori darajasini ifodalovchi hamda ular bilan munosabatdosh bo'lgan kuchaytirish sintaktik konstruksiyalari – sifatning *trop*, *immensement*, *excessivement*, *énormément*, *suprêmement*, *prodigieusement*, *infiniment* kuchaytirish ravishlari bilan, shuningdek sifat bilan ifodalangan belgi darajasi namoyon bo'lishining eng oxirgi chegarasini ko'rsatuvchi *des plus*, *des mieux*, *on ne peut plus* kabi ravishli oborotlar bilan birikmalari kiradi.

XULOSA

1. Morfologik (prefiksial va suffiksial so'z yasashlar), sintaktik (kuchaytiruvchi so'z birikmalari) va frazeologik o'xshatishlar bilan ifodalangan leksik vositalar, predmetlarni taqqoslashdan qat'iy nazar, sifat darajasini ko'rsatish uchun qo'llanildi. Ushbu vositalar intensivlikni keng qamrab olishga imkon berib, tilning turli stilistik va funksional qatlamlarida o'ziga xos vazifalarni bajardi. Bu esa fransuz tilida sifat darajasining aniq ifodalanishini ta'minladi.

2. Tahlil shuni ko'rsatdiki, relyativ va absolyut usullar bir-biridan sezilarli farq qiladi, lekin ular o'rtasidagi semantik bog'liqlik mavjud. Relyativ darajalar taqqoslash orqali belgining miqdoriy o'zgarishini ko'rsatsa, absolyut darajalar belgi intensivligini hech qanday taqqoslashsiz, to'liq ajratib ko'rsatadi. Bu bog'liqlik tildagi ma'nolar tizimining izchil va izohli bo'lishiga hissa qo'shadi.

3. Til hodisalarining bir majmuasi, taqqoslashdan qat'i nazar, belgi intensivligining darajasini ifodalashi aniqlandi. Ushbu kategoriyalarni o'rganish orqali sifatning relyativ darajalari va absolyut superlyativ kategoriyalarini bir-biridan ajratish mumkin. Bu farqlash sifat kategoriyalarini yanada nozik tahlil qilishga imkon yaratdi, leksik-grammatik vositalarni yanada to'g'ri tasniflashga yordam berdi.

4. Sifatning yuqori darajasini ifodalash tizimida asosiy kategoriya bo'lib, absolyut superlyativ ko'p hollarda grammatik ifodalanishdan tashqari, kuchaytiruvchi va ekspressiv vositalar sifatida ham namoyon bo'ldi. Bunday vositalar ko'pincha emotsional bo'yoqqa ega bo'lib, ularning stilistik o'rni kuchaytirish funksiyasini aniq aks ettirdi.

5. Sifat intensivligi tushunchasi subyektiv baho kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu grammatik abstraksiyaning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun, sifatning intensivlik darajalarini belgilovchi kategoriya leksik-grammatik kategoriyaga tegishli ekanligi, uning tahlili grammatika va stilistika fanlari doirasida keng qamrovli tadqiqotni talab etadi. Intensivlik darajasini subyektiv baho bilan bog'lagan holda, bu kategoriyaning sintaktik, semantik va stilistik jihatlari aniqlandi.

6. Tahlil natijasida fransuz tilida morfologik vositalarga qaraganda analitik vositalarning ustunligi aniqlandi. Sifatning intensivligini ifodalashda analitik vositalar, ya'ni sintaktik strukturalar ko'proq qo'llanilib, morfologik shakllar ikkinchi darajaga tushadi. Ushbu tendensiya tilda grammatik ko'rsatkichlardan tashqari sintaktik konstruksiyalarning muhimligini ko'rsatdi.

7. Sifat intensivligini yetkazuvchi leksik birliklarning eskirishi tilning rivojlanishi jarayonida sodir bo‘ladi. Ayniqsa, ekspressiv soha leksik eskirishga moyil bo‘lib, bunday jarayon intensiv formantlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu formantlar kuchaytiruvchi vositalar sifatida semantik zaiflashish natijasida hosil bo‘ldi va ularning umumiy leksik ma’nosi abstrakt ko‘rinishga ega bo‘ldi.

8. Kuchaytiruvchi formantlar dastlab yorqin emotsional bo‘yoq bilan ajralib tursa-da, ularning ortiqcha ishlatilishi sababli emotsionallikni yo‘qotib, sof intensiv vositaga aylanishi aniqlandi. Bu o‘zgarish qisqa vaqt oralig‘ida sodir bo‘lib, ularning semantik zaiflashishi natijasida intensivlikni faqat grammatik jihatdan emas, balki stilistik jihatdan ham ko‘rsatdi.

9. Kuchaytiruvchi formantlar til birliklari, frazeologik oborotlar, turg‘un o‘xshatishlar va o‘zining obrazlilik xususiyatini yo‘qotgan yoki zaiflashgan idiomatik iboralar orqali ifodalandi. Bunday formantlar frazeologik birliklarning ichki ma’nosiga semantik yaqin bo‘lib, tilda o‘ziga xos kuchaytirish vazifasini bajardi.

10. Sifat intensivligini ifodalash vositalarining lingvistik tadqiqi muammosi leksikologiya, stilistika, grammatika, frazeologiya va so‘z hosil qilish masalalari bilan bog‘liqdir. U tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida o‘zaro munosabatlarni ko‘rsatib, umumlisoniy muammolardan biri sifatida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

НОРМАТОВ АЗАМАТБЕК АБДУХАЛИЛОВИЧ

**ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ, ВЫРАЖАЮЩИХ КАТЕГОРИЮ
ИНТЕНСИВНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ**

10.00.04 – Язык и литература европейских, американских и австралийских народов

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2025

Тема диссертации на степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.1.PhD/Fil3098.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном институте иностранных языков.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Андижанского государственного института языков (www.adchti.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Якубов Жамолиддин Абдувалиевич доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Шахобиддинова Шохид Хошимовна доктор филологических наук, профессор Ахророва Рузихон Усмоновна доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Ведущая организация:	Наманганский государственный институт иностранных языков

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 по присуждению ученых степеней при Андижанском государственном институте иностранных языков (Адрес: 170100, город Андижан, улица Бобур шох, дом 5. Тел: 0(374) 223-42-76; факс: 0(374) 223-42-76; e-mail: info@asifl.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного института иностранных языков (зарегистрировано за №_____). (Адрес: 170100, город Андижан, улица Бобур шох, дом 5. Тел: 0(374) 223 42 76).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года.
(протокол реестра рассылки №_____ от «_____» _____ 2025 года).

Д.А.Рустамов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор фил. наук, профессор

А.Дж.Атабоев
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор фил. наук (DSc), доцент

Г.М.Хошимов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор фил. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике особую значимость приобретает исследование категории интенсивности прилагательных во французском языке, рассмотрение этой категории как независимой, со своей системой выражения по отношению к категории степеней сравнения, а также изучение грамматической природы степеней прилагательных и лексико-синтаксических средств выражения интенсивности прилагательных. Кроме того, важно выявление продуктивных структурно-семантических моделей усилительных средств во французском языке. Изучение лингвостилистических особенностей категории интенсивности прилагательных, обладающих специфическими чертами во французском языке, и систематическое освещение этой категории является одной из актуальных задач.

В мировой лингвистике категория интенсивности представляет собой языковое явление, которое логически и эмоционально определяет увеличение или уменьшение, рост или снижение, усиление или ослабление показателей качества, объема, характеристик предметов и действий относительно нормативного показателя. В определенном смысле эта категория носит универсальный характер, так как наблюдается во всех языках. В связи с этим важно изучать данное языковое явление во французском языке на грамматическом, лексическом и стилистическом уровнях.

В годы независимости в нашей стране развитие науки и внедрение инноваций во все сферы подняты на уровень государственной политики. В решении масштабных задач, стоящих перед Новым Узбекистаном, который делает уверенные шаги к тому, чтобы занять место среди стран с развитым научным, экономическим и социальным потенциалом, наука играет неопределимую роль. То, что “основа прогресса нашей страны, безусловно, — наука и инновации”¹, требует расширения масштабов исследований в области лингвистики. С этой точки зрения, в последние годы проводится ряд исследований, направленных на изучение языковых особенностей иностранных языков. Тот факт, что категория интенсивности в современных французских прилагательных не нашла в рамках французского языка, определяет необходимость исследования данной темы.

Данное исследование в определенной степени послужит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2020 года, № УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы высшего образования” от 20 апреля 2017 года, № ПП-5117 “О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на

¹ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису – <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998> (Дата обращения: 02.10.2022).

качественно новый уровень” от 19 мая 2021 года, Послании Олий Мажлису Республики Узбекистан от 10 февраля 2022 года и других нормативных правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Исследовательская работа выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики: 1. “Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации”.

Степень изученности проблемы. Лингвостилистический анализ категории интенсивности в прилагательных французского языка в мировой лингвистике нашёл своё отражение в исследовательских работах Ш.Балли, Ж.Дамюрет, Э.Пишон, Ф.Брюно, В.Г.Гака, Л.И.Илии². Если в рамках материала русского языка категория интенсивности была исследована А.Н.Полянским, В.П.Мусиенко, В.В.Акуленко, Е.В.Бельской, И.В.Ревенко, Г.И.Радченко, И.А.Кокиной, М.В.Бондаренко³, то в рамках материала английского языка она была исследована В.Р.Багдасаряном, И.Г.Беручашвили, Л.Ю.Герасимовой, Э.Сепиром, Д.Болинджером, Э.Н.Сергеевой, К.М.Сувориной, О.Ф.Шевченко, Э.И.Шейгалом, И.Г.Беручашвили, И.И.Туранским, Э.Л.Шамсутдиновой, О.Д.Харченко, А.И.Зияевым⁴. В рамках материала французского языка анализ категории интенсивности был осуществлён в исследовательских работах Л.В.Шиловской, М.В.Бондаренко, Н.Г.Бруснецовой, Л.В.Воробьевой, М.В.Метцлер, В.С.Неверовой, Л.В.Некрасовой, И.В.Удовенко⁵. Если относительно степени качества в

² Damurette J. & Pichon E. Des mots à la pensée. Essai de Grammaire de la langue française. – Paris: 1911-1930. – 4552 p; Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Иностранная литература, 1961. – 412 с; Brunot F. La pensée et la langue. – Paris, 1965. – 391 p; Илия Л.И. Очерки по грамматике современного французского языка. – Москва: Высшая школа, 1970. – 175 с; Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. – Москва: Высшая школа, 1986. – 832 с.

³ Полянский А.Н. Категория интенсивности признака в русском языке. – Ленинград, 1978. – 171 с; Кокина И.А. Языковые средства выражения семантики интенсивности в произведениях А.П. Чехова о детях и для детей. кандидат филологических наук. – Ростов-на-Дону, 2001. – 171 с.

